

AHOLI MIGRATSIYASIDA IJTIMOY IQTISODIY YONDASHUVLARNING TAXLILI

Dilshoda Turg'unboyeva Azamjon qizi
Andijon davlat universiteti Geografiya
(o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi
magistranti dilshodaturgunboyeva0109@gmail.com
+998905716949

Anotatsiya:

Ushbu maqolada aholi migratsiyasiga bog'liq bo'lgan o'rganishlar ilmiy izlanishlar va tadqiqot o'tkazgan olimlarning fikr mulohazalari aholi migratsiyasidagi yondashuvlar, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholi migratsiyasi dinamikasidagi o'zgarishlar tahlil etilgan hamda migratsiya aylanmasida kelganlarga nisbatan ketganlar ulushi yuqoriligisha qolayotganligi hamda aholining migratsion faolligi uning intensivlik darajasi bo'yicha o'rganilib tahlil etilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, migrant, davlat, inson, xalqaro tashkilot, Aholi migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mayatniksimon migratsiya, xalqaro migratsiyasi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etuvshi omillardan biri aholi migratsiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda migratsiya jarayoni iqtisodiy, ijtimoiy, demografik jarayonlar ta'siri ostida shakllanmoqda. Aholi migratsiyasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatini aks ettiruvchi jarayondir. Unda ro'y berayotgan o'zgarishlar aholining migratsion xulqini va migratsion istaklarini shakllantiradi. Aholi migratsiyasi uning mamlakat ishidagi yoki bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'shishni bildiradi [1]. Umuman olganda, migratsiya aholi xududiy harakatlanishi yig'indisidir. Demak, aholining hududlar bo'ylab qilgan harakati - aholi migratsiyasi deyiladi. Migratsiyada ishtirok etuvshi kishilarni esa migrantlar deb ataladi. Hozirgi vaqtda aholi migratsiyasining sabab-oqibatlarini o'zaro bog'likligiga doir bir qator nazariyalar va konsepsiyalar yaratilgan.

Xalqaro maydonda globallashuv jarayonlarining tobora shiddat bilan rivojlanib borishi bugungi kunda inson huquqlarining, erkinligining muhofaza qilish hamda uning kafolatlarini kuchaytirish masalasi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Xar bir shaxsning o'z davlat hududida, butun jahon bo'ylab ko'chib yurishi, yashash joyini to'sqinliklarsiz o'zgartira olish huquqining mustahkamlanib borishi inson huquqlarining mavjudligi va amalda ta'minlanganligi inson erkinligini belgilovchi muhim ijtimoiy-siyosiy mezonlardan biri bo'lib bo'lib xizmat qiladi.

Migratsiya sabablarini birinchi marta nazariy jihatdan izohlash ingliz olimi Ye.G. Ravensteyn nomi bilan bog'langan. U XIX asrning oxirlarida «migratsiya qonunlari» nazariyasini taklif qilgan [2]. Ular yordamida mintaqalar o'rtasidagi turli migratsion oqimlarning ko'lami, yo'nalishlari bilan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mezonlari birgalikda makrodarajada muvofiqlashtiriladi. O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan, mamlakatda aholi migratsiyasining huquqiy bazasi shakllana boshladi, bu esa ushbu jarayonlarni boshqarish ushuncha katta ahamiyatga ega. Hususan, respublikamiz fuqarolarini shet elda ishga joylashishini ta'minlaydigan mehnat organlari infratuzilmasi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston migratsiya sohasidagi va u bilan bog'liq masalalar bo'yicha ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarda ham ishtirok etmoqda. Ma'lumki, aholi migratsiyasining harakati turli xil omil va sabablarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'shib yurishiga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimi iqtisodiy-ijtimoiy sabablar, ya'ni ishsizlik, munosib

ish topish, oliy va o'rta maxsus ma'lumot olish, ya'ni o'qish ajralib turadi. Shuningdek, ekologik vaziyatning salbiy ta'siri, moddiy, madaniy-maishiy sharoitdan qoniqmaslik va hokazolarni sanab o'tish mumkin. Bugungi kunda migrasiyaning iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekistonda aholi migrasiyasi sabablari va maqsadlari quyidagi asosiy omillar ta'siri ostida shakllanmoqda: umumjahon jarayonlarining globallashuvi, yangi davlatlar mustaqilligining kushayishi, mintaqalarning o'zida yuz berayotgan shuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va x.k.lar. Mintaqalarning ijtimoiy iqtisodiy-sharoitlari bevosita ulardagi aholining migrasion kayfiyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan o'troq yashab kelgan va migrasiyaga moyilligi past darajada bo'lgan. Biroq, O'zbekistonda ham bozor munosabatlarining shakllanishi, shuningdek, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar aholining migrasion harakatini faollashtirdi.

O'zbekistonda 2018 yilda jami 334,9 mingdan ortiq kishi o'z yashash joyini o'zgartirdi. Mustaqillik yillarida migrasion o'sish manfiy ko'rsatkishga ega bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda migrasiya saldosi 1991 yilda minus 30,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkish 1995 yilda 88,9 mingta, 2000 yilda 66,6 mingta, 2005 yilda 101,6 mingta, 2010 yilda 44,1 mingta, 2010 yilda 44,1 mingta, 2015 yilda 29,3 mingta, 2018 yilda esa 14,7 mingta kishini tashkil etdi. Demak, mustaqillik yillarida migrasiya saldosi manfiyligisha qolgan bo'lsada, lekin, uning miqdor ko'rsatkishi pastka tushib bordi.

Aholining migrasion xarakatshanligi, ya'ni koeffisiyenti (xar ming kishi hisobiga aholining ko'shib yurishi) 1991 yilda 37,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkish 1995 yilda 18,7 kishini, 2000 yilda 14,5 kishini, 2005 yilda 14,9 kishini, 2010 yilda 11,1 kishini, 2015 yilda 9,7 kishini va 2018 yilga kelib bu ko'rsatkish 10,1 kishini tashkil etdi [3]. Umuman, aholining ko'shib yurish intensivligi 1991-2018 yillarda 3,7 martaga kamaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida migrasiya koeffisienti yuqori bo'lishiga sabab sobiq ittifoqning parshalanishi natijasida uzoq yillar davomida ushlab turilgan halqaro migrasiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan o'sa boshladi. Bu xol aholining migrasion koeffisientini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Umuman, mustaqillikning dastlabki yillarida migrasiya hajmi asosan o'z yurtiga qaytib ketayotgan turli millat vakillari hisobiga shakllangan bo'lsa, hozirgi kunda migrasion qoldiq O'zbekistondan tashqarida ishlab kelmoqshi bo'lganlar hisobiga sodir bo'lmoqda.

2018 yilda migrasiya koeffisiyenti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan juda yuqori bo'lgan mintaqalarga Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlari kirdi. Ushbu mintaqalarda har 1000 ta aholining mos ravishda 28,1 va 21,5 tasi ko'shib yurgan va migrasiya koeffisiyenti indeksi Navoiyda 2,780 va Sirdaryoda esa 2,126 ga teng bo'ldi. (1-jadval). Shuningdek, migrasiya koeffisiyenti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan yuqori bo'lgan hududlarga Jizzax, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi kirdi Bunga sabab yuqorida sanab o'tilgan mintaqalar aholisi tarkibida nomahalliy millat vakillarining ulushi nisbatan yuqoriligi va ularning umumrespublika miqyosida o'z vatanlariga ketishlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tabiiy-ekologik sharoitning salbiyligi asosiy sabablar qatoridan joy olmoqda. Qolgan barsha mintaqalarda aholi migrasiya koeffisiyenti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan past. Xususan, migrasiya koeffisiyenti past bo'lgan mintaqalarga Namangan hamda Andijon viloyatlari kirdi. 2018 yilda Namangan va Andijon viloyatlarida har 1000 ta aholining mos ravishda 3,74 va 4,92 tasi ko'shib yurgan. Bu respublika ko'rsatkishiga nisbatan Namanganda 2,7 va Andijonda 2,1 barobar past. 2008-2018 yillardagi aholining migrasion koeffisiyenti solishtirilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi: respublika bo'yisha o'rtasha migrasiya koeffisiyenti 12,5dan 10,1ga pasaygan, bunday holat respublikaning deyarli barsha hududlarida kuzatildi. Faqat Namangan viloyatida biz tahlil qilayotgan davrda migrasiya koeffisiyenti ko'rsatkishi 2,66dan 3,740 ga ko'tarilgan.

Xulosa qilib ayitganda keyingi o'n yilda respublika mintaqalari orasida aholining migrasion faolligi faqat Namangan viloyatida o'sgan. Qolgan barsha mintaqalarda esa bu ko'rsatkish pasaygan [4].

2008-2018 yillarda har 1000 ta aholiga nisbatan migrasion o'sish respublika bo'yisha 1,67dan 0,48ga tushdi. Aholining migrasion o'sishi Toshkent shahridan tashqari barsha hududlarda pasaydi. Xulosa qilib ayitganla ohirgi 10 yilda respublika mintaqalarida aholining migrasion faolligi pasaygan. Bu esa mintaqalarda iqtisodiy-ijtimoiy sharoitning o'tgan davr mobaynida muayyan darajada yaxshilanganidan dalolat beradi [5].

Xulosa qilib ayitganda migrasiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barsha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvshi va o'z navbatida aholi joylashuvdagi muhim muammolar bilan bog'liq aholining hududiy harakatidir. Shuning ushun ham jamiyat taraqqiyotida u yoki bu darajada ahamiyatli bo'lgan o'zgarishlar migrasiya jarayonlari ta'sirida o'z aksini topadi [6]. Aholining harakatlanishi, ya'ni iqtisodiy faol aholining migrasion jarayonlarda qatnashishini to'g'ri tashkil etish iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Hususan, mintaqalarning turlisha rivojlanganligi, aholining migrasion faolligi oshishiga turtki bo'lmoqda. Hozirda mintaqalardagi bandlik muammolarini, aholining daromadi va moddiy farovonligini oshirishga doir shora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi [7]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan shora-tadbirlar samaradorligi avvalo yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 29 dekabr 2018 yil. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yisha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.
3. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent. 2004.
4. Denisenko M.B., Ionsev V.A., Xorev B.S. Migrasiologiya. M.: Izdatelstvo MGU, 1989. S.15.
5. E.Ravnsnstein. The Laws of Migration ("Journal of the Royal Statistisal Sosiety", June 1885, pp.l 67-227; June 1889,pp.241-301).
6. O'zbekiston demografik yillik to'plami 2008-2018. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika ko'mitasi.
7. O'zbekiston raqamlarda 1991-2018 statistik to'plamlari. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika ko'mitasi.